

## YURAK QON TOMIR TIZIMI KASALLIKLARI

*Toshkent Pediatriya Tibbiyot Instituti*

*Bolalar kasalliklari propodevtikasi kafedrası*

*assistenti **Saidaliyeva M. H***

*2-pediatriya va tibbiy biologiya fakulteti*

*2- pediatriya 108-guruh talabasi*

**Qurbonova Diyora Komiljon qizi.**

**Annotatsiya:** Ushbu maqola yurak kasalliklari, ularning sabab va xavf omillari, shuningdek, zamonaviy davolash usullari haqida soʻz yuritadi. Tibbiyotda yurak kasalliklari eng keng tarqalgan va xavfli kasalliklar sifatida eʼtirof etiladi. Hozirgi kunda yurak kasalliklari nafaqat keksalar, balki, yoshlar oʻrtasida ham koʻp uchrayotgan xavfli holatlardan biridir. Statistik maʼlumotlarga koʻra, yurak-qon tomir kasalliklari dunyoda oʻlim sabablarining 31 foizini tashkil etadi. Tibbiyotda bu boradagi bilimlar tobora chuqurlashib bormoqda va har bir boʻlajak shifokor bu sohada yetarli bilimga ega boʻlishi zarur. Shuningdek maqolada yurak kasalliklarini davolashda va oldini olishda zamonaviy yondashuvlar, terapiya usullari usullari va profilaktik choralar haqida soʻz yuritiladi.

**Kalit soʻzlar:** yurak kasalliklari, aritmiya, yurak yetishmovchiligi, koronar arteriya kasalliklari, profilaktika, stress boshqaruvi, qon bosimini nazorat qilish.

### Yurak kasalliklari

**Aritmiya-** yurak qisqarish maromi (normal ritmi)ning buzilishi; chuqur nafas olganda yurak qisqarishining tezlashishi, nafas chiqarganda kamayishi,(nafasga aloqador aritmiya), koʻproq bolalar va oʻsmirlarda kuzatiladi.

U sog'lom yurakda ham vaqtincha yuzaga kelishi mumkin, lekin ko'pincha yurak kasalliklari, qon tomirlarining yallig'lanishi, elektrolit balansining o'zgarishi, alkogol va nikotin bilan zaharlanish yoki boshqa muammolar bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Aritmiyaning belgilari kasallik turiga, shuningdek, og'irligiga qarab o'zgaradi. Ba'zi aritmiyalar jiddiy simptomlarsiz bo'lishi mumkin, boshqalari esa hayot uchun xavf tug'diradi. Asosiy belgilari:

- yurak urishining tezlashishi yoki sekinlashishi
- ko'krak og'rig'i yoki sqilish hissi
- nafas qisqarishi yoki qiyinchiliklari
- charchoq yoki zaiflik hissi
- boshq aylanishi yoki hushdan ketish
- qo'llarda yoki oyoqlarda shishish

Bu kasallikni oldini olish uchun sog'lom turmush tarziga rioya qilish, stressni boshqarish, zararli odatlardan voz kechish, qon bosimi va qand miqdorini nazorat qilish, yillik ko'riklardan o'tib turish lozim.

**Yurak yetishmovchiligi**- yurak mushaklarining organizmning ehtiyojiga mos darajada qon hayday olmasligi bilan tafsiflanadigan klinik sindromdir. Bu hujayralararo suyuqlik hajmining oshishi, organlar va to'qimalarning perfuziyasining pasayishi bilan namoyon bo'ladi. Ushbu sindromning patofiziologik asosi shundaki, yurak nasos funksiyasi buzilganligi sababli tananing metabolik ehtiyojlarini taminlay olmaydi yoki u buni qorinchalarda so'ggi diastolik bosimni oshirish orqali amalga oshiradi. Bu kasallik turli yurak kasalliklarining yakuniy bosqichi sifatida yuzaga keladi va har yili minglab insonlarning hayotiga xavf soladi. Yurak yetishmovchiligi rivojlanishida yurakning kontraktil funksiyasi buziladi, natijada zarb hajmi kamayadi. qon aylanishining buzilishi tufayli a'zolar va to'qimalarga kislorod yetarli darajada yetkazilmaydi. Bu esa umumiy

gipoksiya, modda almashinuvining buzilishi va klinik belgilar bilan namoyon bo'ladi.

Klinik belgilari:

- nafas qisilishi, ayniqsa jismoniy harakatda yoki yotganda kuchayadi
- tez charchash, holsizlik
- oyoqlarda shishish
- kechasi terlash, yurak urishining tezlashishi
- yo'tal, ba'zida qonli balg'am bilan
- og'ir hollarda ong buzilishi, siydik ajralishining kamayishi

Oldini olish: arterial bosimni nazorat qilish, yurak ishemik kasalliklarini vaqtida davolash, sog'lom turmush tarziga rioya qilish, chekishni tashlash, tog'ri ovqatlanish, jismoniy faollik, surunkali kasalliklarni (diabet, gipertoniya) doimiy nazorat qilish.

**Miokard infarkti**- yurak mushagining (miokardning) nekrozi (to'qima o'limi) bo'lib, u yurakni qon bilan ta'minlovchi koronar arteriyaning to'satdan to'silishi natijasida yuzaga keladi. Miokard infarkti(yurak huruji deb ham ataladi)-yurak mushagi ishemiyasining o'tkir davri bo'lib, u qon ta'minoti buzilganda yurakka oqishining to'xtashi bilan tavsiflanadi. Agar o'n besh daqiqa ichida qon yana oqishni boshlamasa, yurakning bir qismi o'ladi(yurak mushaklari nekrozi).Bu yurakning O'lik to'qimalarga ega bo'lgan qismi bo'lib,miokard infarkti deb ataladi. Bu holat yurak ishemik kasalliklarining eng ogir va holat uchun xavfli shakllaridan biri hisoblanadi. Bu kasallik bilan 45-60 yoshdagi kishilar ko'proq kasallanadi. Erkaklar ayollarga nisbatan miokard infarktiga ko'proq chalinadi va ateroskleroz, gipertoniya, qandli diabet bilan kasallanganlarda ko'proq kuzatiladi. Miokard infarktining asosiy sababi - koronar arteriyalarning torayib, ularning

yorilishi va tromb hosil bo'lishidir. Bundan tashqari surunkali stress, chekish, semizlik, oila tarixida yurak kasalligining bo'lishi, yuqori xolesterin va jismoniy harakatsizlik ham kasallik rivojlanishiga sabab bo'ladi.

Klinik belgilari:

-ko'krak sohasida to'satdan kuchli, ezuvchi, siquvchi og'riq(og'riq chap qo'l, yela, bo'yinga; jag'ga, orqaga tarqalishi mumkin)

-nafas qisishi

-sovuq ter

-qon bosimining tushishi

-yurak urishining notekisligi

-ba'zan ko'ngil aynish, qusish, hushdan ketish

**Eslatma:** Ayrim bemorlarda, ayniqsa qandli diabetli yoki keksalarda infarkt og'riqsiz kechishi mumkin(tinch infarkt).

Oldini olish: to'g'ri turmush tarzi, muntazam tibbiy ko'riklar, stressni boshqarish, shifokor tavsiyasiga ko'ra aspirin istemol qilish infarkt xavfini kamaytiradi, qon bosimini va lipidlar darajasini nazorat qilib borish.

### **Zamonaviy diagnostika yondashuvlar**

Yurak qon tomir tizimi kasalliklarini erta aniqlash kasallikning og'irlashishining oldini olishda hal qiluvchi ahamiyatga ega.so'g'gi yillarda diagnostika texnologiyalari yuqori darajada rivojlandi va bu orqali yurak kasalliklarini aniqlashda aniqlik, tezkorlik induvidual yondshuvni ta'minlash imkonini bermoqda. Har bir usul o'zining qo'llanilish sohalari va texnologik afzalliklariga ega bo'lib, ular birgalikda yurak salomatligiga xizmat qiladi.

**Электрокардиография (ЕКГ)** - yurak faoliyatining elektr faolligini o'lchash usulidir. ЕКГ yurakning elektr impulsleri va uning mushaklaridagi tarqalish jarayonini kuzatib, yurak ritmi, yurak urish tezligini, yurakning qisqarish va bo'shashish vaqtlarini baholashga yordam beradi.

**Экокардиография (ультратовуш текшируви)** - yurak mushaklari qisqaruvchanligi, klapanlar holati, yurak bo'lmalarining kattaligi va qon oqimi tezligi haqida batafsil malumot beradi.

**Yurak qon tomirlarining kompyuter tomografiyasi (MSKT-angiografiya)** -yurak arteriyalarining 3D ko'rinishda tasvirini olish imkonini beradi. Koronar arteriyalarning blyashka va stenoziya darajasini aniqlaydi. Kontrast vositalar orqali qon oqimining real holati baholanadi.

**Магнит-резонанс томографиya (MRI)-** yurak qon tomir kasalliklarini aniqlashda va davolashni monitiring qilishda muhim vosita bo'lib, yuqori aniqlikdagi tasvirni olish imkoniyatini taqdim etadi. Ushbu usulning afzalliklari, xususan noxirurgik, yuqori aniqlikda va ko'p tomonlama tasvir olish imkoniyatlari yurak kasalliklarini erta aniqlash va davolashda juda muhim o'rin tutadi.

### Umumiy profilaktikasi

Umumiy profilaktika, kaslliklarning oldini olish va sog'liqni yaxshilashda asosiy yo'nalish hisoblanadi. Bu mafaqat individual darajada, balki jamiyat miqyosida ham muhimdir.sog'lom turmush tarzi, ekologik muhit, tibbiy tekshiruvlar va psixologik yordam orqali ko'plab kasalliklarni oldini olish mumkin. Yurak qon tomir tizimi kasalliklarining birlamchi va ikkilamchi profilaktikasi mavjud. Birlamchi profilaktika- kasallik rivojlanishining oldini olish, ikkilamchi profilaktika- kasallikning asoratlarning oldini olish (masalan, takroriy miokard infarkti yoki insult).

-mutahassis shifokor bilan o'z vaqtida maslahatlashish

- immunizatsiya(vaksinatsiya)
- stressni boshqarish
- gigiyena qoidalariga rioya qilish
- spirtli ichimliklar va chkishni tashlash
- jismoniy faollik
- to'g'ri ovqatlanish

**Xulosa:** yurak kasalliklari jahon bo'ylab sog'liqni saqlash tizimida eng katta tahdid sifatida mavjud bo'lib, ularni oldini olish va davolash dolzarb muammo hisoblanadi. Bugungi kunda yurak qon tomir tizimining turli kasalliklari , jumladan, yurak yetishmovchiligi, stenokardiya, miokard infarkti, aritmiya kabilar keng tarqalgan va ularning ko'p qismi o'limga olib keladi. Shu sababli bu kasalliklarni oldini olish(profilaktikasi) va davolash muhim hisoblanadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. V. K. Kashkin, O. V. Morozov. yurak kasalliklari va ularning davolash usullari
2. D.A. Vohidov(2020) miokard infarkti va uni davolash usullari
3. World health organization (WHO). (2022).
4. O'zbekiston respublikasi sog'liqni saqlash vazirligi .(2021) yurak kasalliklarini erta aniqlash va davolashda zamonaviy yondashuvlar.